



DINAMIK IP-MANZILLAR VA MAXFIYLIK – ISH TARIXI VA HUQUQIY ASOSLAR

Elbek Xasanov

LLB, Toshkent Davlat Yuridik Universiteti
LL.M., Pennsylvania State University
Mustaqil qiyosiy huquq bo'yicha tadqiqotchi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18871676>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 24- fevral 2026 yil
Ma'qullandi: 26- fevral 2026 yil
Nashr qilindi: 28- fevral 2026 yil

KEY WORDS

IP-manzil, maxfiylik, ma'lumotlarni himoya qilish, sud buyrug'i, Yevropa sudi, inson huquqlari, Konvensiya, obunachi ma'lumotlari.

ABSTRACT

Ushbu maqola Yevropa Inson Huquqlari Sudi tomonidan ko'rib chiqilgan Benedik v. Slovenia ishining faktlari, protseduralari va huquqiy asoslarini tahlil qiladi. Maqolada dinamik IP-manzil obunachilariga oid ma'lumotlarga huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan kirish, Sloveniya ichki qonunchiligi va kommunikatsiya hamda ma'lumotlar maxfiyligiga oid konstitutsiyaviy normalar muhokama qilinadi.

Faktlar va Protseduralar

Ushbu ish Sloveniyalik fuqarosi **Igor Benedik** ("Dawolatchi") tomonidan 1950 yildagi **Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish Konvensiyasining** 34-moddasi asosida Sloveniya Respublikasi qarshi ochilgan. Dawolatchi da'vo qilganicha, uning Konvensiyaning 8-moddasi bo'yicha huquqlari buzilgan, chunki politsiya uning identifikatsiya ma'lumotlarini Internet provayderi (ISP) orqali noqonuniy tarzda olgan.

2006 yilda Shveysariya politsiyasi bir tarmoqdagi foydalanuvchilarni kuzatish operatsiyasini amalga oshirgan, ulardan ba'zilari bolalar pornografiyasiga oid fotosuratlar va videolarni saqlagan va almashgan. Ushbu dinamik IP-manzillardan biri keyinchalik dawolatchiga bog'langan. Sloveniyalik politsiya sud buyrug'ini olmasdan, Shveysariya politsiyasining ma'lumotlari asosida 2006 yilda foydalanuvchining identifikatsiya ma'lumotlarini so'ragan. Dawolatchi otasi shu IP-manzil bilan bog'liq Internet xizmatiga obunachi bo'lgan va ISP politsiyaga uning ismi va manzilini taqdim qilgan.

Shundan so'ng, mahalliy prokuratura tekshiruvchi sudyadan ISP'dan foydalanuvchi shaxsiy ma'lumotlarini va IP-manzil bilan bog'liq trafik ma'lumotlarini oshkor qilishni talab qiluvchi buyrug'ni chiqarishni so'ragan. 2007 yil yanvar oyida tekshiruvchi sudya dawolatchining oilaviy uyini qidiruvga buyruq bergan. Uning otasi gumonlanuvchi sifatida ko'rsatilgan. Qidiruv davomida to'rt kompyuter musodara qilingan. Politsiya kompyuterlardan birida bolalar pornografiyasiga oid fayllarni topgan. Dawolatchi fayl almashish dasturini o'rnatgan bo'lib, u orqali boshqa foydalanuvchilardan fayllar yuklab olgan va o'z fayllarini avtomatik tarzda taklif qilgan. Yuklangan materiallarning kichik qismi bolalar pornografiyasiga tegishli bo'lgan.

Oilaviy suhbatlardan so'ng, gumonlanuvchi dawolatchi (Benedik) sifatida o'zgartirilgan. Dawolatchi tekshiruvchi sudyaga ISP ma'lumotlarini qonunsiz ravishda, haqiqiy so'rov bo'lmagan holda politsiyaga uzatganini bildirgan. 2008 yil mart oyida tekshiruvchi sudya pornografik materialni yaratish, tarqatish, saqlash va namoyish etish jinoyatini amalga oshirganlik gumonidan sud tergovini boshlagan. Dawolatchi advokati shu qarorga qarshi shikoyat bergan va foydalanuvchi identifikatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar noqonuniy olinganligini da'vo qilgan. Uning e'tirozlari rad etilgan va dawolatchi ayblangan, unga sakkiz oylik shartli jazo va ikki yillik probatsiya tayinlangan.

Birinchi instansiya qarorini qayta ko'rib chiqishda dawolatchi politsiya sud buyrug'i olmadan obunachi ma'lumotlarini olganini, bu esa noqonuniy ekanini ta'kidlagan. Apellyatsiyasi asoslanmagan deb rad etilgan. Oliy sud birinchi instansiya faktlarini to'g'ri aniqlaganini tasdiqlagan va IP-manzil foydalanuvchisi haqidagi ma'lumotlar qonuniy ravishda olinganligini belgilagan. Dawolatchi Oliy sudga murojaat qilib, dinamik IP-manzil har safar foydalanuvchi ulanayotganda yangi IP-manzil berilishi bois telefon raqamiga bog'lab bo'lmasligini ta'kidlagan. Shuningdek, bu ma'lumotlar "trafik ma'lumotlari" hisoblanib, sud buyrug'i bo'lmasdan olinmasligi kerakligini bildirgan.

Oliy sud da'voni rad etib, umumiy web-saytlarning ochiq bo'lishi va Shveysariya politsiyasining foydalanuvchi almashinuvini kuzatish orqali dinamik IP ma'lumotlarni olishi maxfiy emasligini belgilagan. Konstitutsiyaviy sud ham xuddi shu da'volarni ko'rib, dawolatchining asosiy huquqlari buzilmaganini belgilagan. Sud IP-manzil foydalanuvchisi identifikatsiyasini faqat ma'lumot maxfiyligi sifatida himoya qilgan va sud buyrug'i talab qilinmagan.

Masalalar

- Dinamik IP-manzillar va raqamli kommunikatsiya maxfiyligi.
- Dinamik IP foydalanuvchilari odatda shaxsiy ma'lumotlarini himoya qila oladimi?
- Obunachi ma'lumotlarini ISP'dan sud buyrug'i olmadan olish mumkinmi?
- Bolalar huquqlarini, jinsiy suiiste'mol va onlayn tarqatish holatlarida obunachi ma'lumotlarini saqlash qonuniymi?

Qoidalar

• **Sloveniya Respublikasi Konstitutsiyasi 1991**, moddalar 37 va 38: Kommunikatsiya va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qiladi, faqat sud buyrug'i asosida va qonuniy tarzda cheklanishi mumkin.

• **Sloveniya Jinoyat-protsessual Qonuni 1995**: Politsiya jinoyat aniqlash uchun zarur ma'lumotlarni so'rashi mumkin. So'rov yozma bo'lishi, foydalanuvchi va qurilma aniqlanishini, vaqtni ko'rsatishi kerak.

• **Elektron Kommunikatsiyalar Qonuni 2012**: ISP ma'lumotlarini huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etishi shart, ma'lumotlar xavfsiz saqlanishi lozim.

• **Cybercrime Konvensiyasi 2001**: Bolalar pornografiyasi jinoyat sifatida belgilanadi. Trafik ma'lumotlari – elektron kommunikatsiya jarayoniga oid har qanday ma'lumot.

• **Sloveniya Jinoyat Kodeksi 1994**, moddasi 187: 14 yoshgacha bo'lgan bolarga pornografik material ko'rsatish va tarqatish taqiqlanadi.

• **Konstitutsiyaviy Sudning qarori 2008:** Faqat kommunikatsiya mazmuni emas, balki atrof-muhit va saqlangan ma'lumotlar ham himoyalangan. Sud buyrug'i bo'lmagan holda shunday ma'lumotga kirish noqonuniy.

Xulosa

Ushbu maqola **Benedik v. Slovenia** ishining to'liq faktik va huquqiy asosini taqdim etdi. Dinamik IP-manzillar, obunachi ma'lumotlari, maxfiylik huquqlari va Sloveniya ichki qonunchiligi o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ko'rsatadi. Shu davrda organlar ma'lumotlarni cheklangan nazorat bilan olgan, bu esa kommunikatsiya maxfiyligi bo'yicha muhim savollarni keltirib chiqargan

Bibliografiya:

1. The Constitution of the Republic of Slovenia 1991. Varuh človekovih pravic RS. Available from: <https://www.varuh-rs.si/en/about-us/legalframework/the-constitution-of-the-republic-of-slovenia/>
2. Criminal Procedure Act 1995 (Amended in 2006). Global Database on Violence Against Women. Available from: <https://evaw-global-database.unwomen.org/fr/countries/europe/slovenia/1995/criminal-procedure-act-1995-amended-in-2006>
3. Electronic Communications Act 2012. Official Gazette RS. Available from: <https://www.akos-rs.si/en/legislation/statutes>
4. Cybercrime Convention 2001. Council of Europe. Available from: <https://www.congress.gov/treaty-document/108th-congress/11/document-text>
5. Benedik v Slovenia Judgement 2018. ECtHR, Application no. 62357/14. Available from: [https://hudoc.echr.coe.int/fre#{%22itemid%22:\[%22001-182455%22\]}](https://hudoc.echr.coe.int/fre#{%22itemid%22:[%22001-182455%22]})